Yusubov Inomjon Ikrom o'g'li	
MOLIYAVIY RESURLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK VA AMALIY JIHATLARI	699
Narzulloyev Behruz Baxtiyor o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI AMALIYOTI TAHLILI	702
Kazakbayev S.B.	
BOG'DORCHILIK TARMOG'NI RIVOJLANTIRISHDA SUV TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	705
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
MHXS ASOSIDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING BUGALTERIYA HISOB VA MOLIYAVIY TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	709
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING IMTIYOZLI MOLIYALASHTIRISH MYEXANIZMLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	718
Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
MAHALLA TIZIMIDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	724
Berkinov Bozorboy Berkinovich	
XALQARO TURIZM BOZORIDA MICE TURIZMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH JARAYONLARINING NAZARIY ASOSLARI	728
Fayyoza Xalimova Nafasovna	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARGA YO'NALTIRILGAN BIZNES JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISH AMALIYOTI.....	733
Azimov Asrorjon Muzaffarjonovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANDLIKNI LEGALLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	737
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	



TIJORAT BANKLARINING BIZNES EKOTIZIMI MUAMMO VA YECHIMLAR.....	742
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI YALPI HUDUDIIY MAHSULOT XAJMIGA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARNING TA'SIRI	749
Sultanov Anvar Abdullaevich	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QURILISH SANOATINING IQTISODIY HOLATI.....	754
Axmedova Sanobar Ikrom qizi, Davlatov Ahmadjon Anvarbek o'g'li	
DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK LOYIHALARIDA VUJUDGA KELADIGAN RISKLARGA QARSHI UZOQ MUDDATLI IQTISODIY STRATEGIYALAR	760
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
MODERN MODELS OF SALES LOGISTICS IN THE SERVICE SECTOR: MARKETING ASPECT AND AREAS FOR IMPROVEMENT	764
Mamatkulova Shoir Djalolovna	
РОЛЬ ПЛАНИРОВАНИЯ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОРГАНИЗАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	769
Ахмедова Азиза Тохировна, Зайналов Ж.Р.	
ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА КАК ОСНОВА ФИНАНСОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ.....	774
Айматова Фарида Хуразовна	
XORIJIY MOLIVAVIY RESURLAR VA ULARNING IQTISODIY O'SISH SIFATINI TA'MINLASHDAGI O'RNII	778
Xomidova Kamola G'olib qizi	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA TO'LOV QOBILIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH	783
Xattabov Murodulla Batirovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	788
Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOIIY MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	795
Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich	
ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	803
Ишонкулова Феруза Асатовна	
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	808
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	
BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	814
Radjapova Latofat Sardorovna	
MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI	821
Abdullayeva Madina Kamilovna	
UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI	827
Nigmatov Akbarjon Anvarovich	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH	831
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVROPA TAJRIBASI	837
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHLATLARI.....	842
Nozimov Eldor Anvarovich	
MAHALLIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH STRATEGIYASI	847
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI.....	850
Raxmonov Aziz Iskandarovich	
COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....	855
Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	882
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH	888
Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	901
Абилов Эльман Худаверди оглы	
QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL.....	906
Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich	
TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI XUSUSIDA.....	914
Hakimov Odil Arziqulovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	918
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	930
Uzakova Umida Ruziyevna	
INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQUVISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLAKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi	
FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	973
Islamova Dilnoza Isamidinovna	
ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	978
Uzaqov Jamshid Norboyevich	
TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	983
Shaymanov Mexriddin Ibragimovich	
ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA.....	987
Sadikova Ra'no Abdullaevna	



ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA

Sadikova Ra'no Abdullaevna

Oriental universiteti

iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

ORCID: 0009-0004-9682-1520

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom iqtisodiyotida qo'llaniladigan rahn (garov), vadiya va havalalarning nazariy-huquqiy mohiyati keng yoritilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli banklar va islom fintex tizimida ushbu institutlarni qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan. O'zbekiston misolida islom moliyasini joriy etish istiqbollari, huquqiy va institutsional shart-sharoitlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari islom iqtisodiyoti tamoyillari asosida adolatli va barqaror moliyaviy munosabatlarni shakllantirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Islom iqtisodiyoti, rahn, vadiya, havalal, raqamli banklar, islom fintex.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and legal nature of the concepts of rahn (pledge), wadiyah, and hawala used in Islamic economics. It also examines the possibilities of applying these institutions within the framework of the digital economy, particularly in digital banking and Islamic fintech systems. Using the case of Uzbekistan, the study explores the prospects for the introduction of Islamic finance, as well as the necessary legal and institutional conditions. The research findings demonstrate the potential for establishing fair and sustainable financial relations based on the principles of Islamic economics.

Key words: Islom iqtisodiyoti, rahn, vadiya, havalal, raqamli banklar, islom fintex.

Аннотация. В данной статье подробно рассмотрена теоретико-правовая сущность понятий рахн (залог), вадия и хавала, применяемых в исламской экономике. Также проанализированы возможности использования данных институтов в условиях цифровой экономики, в системе цифровых банков и исламского финтекха. На примере Узбекистана рассмотрены перспективы внедрения исламских финансов, а также правовые и институциональные условия их развития. Результаты исследования показывают возможности формирования справедливых и устойчивых финансовых отношений на основе принципов исламской экономики.

Ключевые слова: исламская экономика, рахн, вадия, хавала, цифровой банкинг, исламские финтех-компании.

KIRISH

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy xizmatlar tezkorlik, shaffoflik va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda rivojlanmoqda. Fintex, raqamli banklar, elektron to'lovlar va blokcheyn texnologiyalari moliya tizimini tubdan o'zgartirmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy munosabatlarni adolat, halollik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillari asosida tashkil etishga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda.

Bu jarayonda islom iqtisodiyoti va unga xos moliyaviy institutlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Islom iqtisodiyoti faqat moliyaviy mexanizmlar tizimi emas, balki axloqiy-ijtimoiy tamoyillarga asoslangan iqtisodiy munosabatlar modeli hisoblanadi. Unda ribo taqiqlanishi, riskni adolatli taqsimlash, real aktivlarga tayangan moliya va ijtimoiy adolatni ta'minlash asosiy tamoyillar sifatida namoyon bo'ladi.

Islom moliyasida keng qo'llaniladigan muhim institutlardan uchasi — rahn, vadiya va havalal hisoblanadi. Ushbu institutlar qarzi, omonat va majburiyatlar munosabatlarini tartibga solishda muhim o'rin tutadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — rahn, vadiya va havalal institutlarining nazariy-huquqiy mohiyatini tahlil qilish hamda ularni raqamli iqtisodiyot sharoitida qo'llash imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Islom iqtisodiyoti va moliyaviy institutlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar so'nggi yillarda jahon miqyosida keng rivojlanmoqda. Xususan, xorijiy olimlardan M.T. Usmoniy islom moliyasi mexanizmlarining nazariy asoslarini keng yoritib, islomiy moliyaviy shartnomalarning amaliyotdagi qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratgan



[4]. Muallifning asarlarida rahn, vadiya va havala kabi institutlar islom moliyasining asosiy elementlari sifatida tahlil qilingan.

M. Ayub o'z tadqiqotlarida islom moliyasi instrumentlarining iqtisodiy mohiyati va zamonaviy bank amaliyotidagi qo'llanilishini o'rganib, islom banklari faoliyatida omonat va qarz munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini asoslab bergan [5].

MDH mamlakatlari olimlaridan Ye.A. Baydauro'let islom moliyasining nazariy asoslari va uning milliy iqtisodiyotda qo'llanilish imkoniyatlarini tahlil qilgan [1]. R.I. Bekkin islom iqtisodiy modelining zamonaviy sharoitdagi o'rni va uning ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab bergan [2].

Mahalliy olimlardan R.V. Abdullaev esa islom iqtisodiyotida savdo va tadbirkorlik munosabatlarini o'rganib, islomiy moliyaviy mexanizmlarning amaliyotdagi o'rnini ko'rsatgan [3].

Mazkur maqolaning o'ziga xosligi shundaki, unda rahn, vadiya va havala institutlarining nafaqat an'anaviy nazariy-huquqiy mohiyati, balki ularni raqamli banklar va islom fintex platformalarida qo'llash imkoniyatlari ham tahlil qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Islom moliyasi institutlarining nazariy asoslarini o'rganishda tahlil va sintez usulidan, an'anaviy va raqamli moliyaviy mexanizmlarni taqqoslashda qiyoslash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot axborot bazasini islom moliyasi bo'yicha ilmiy adabiyotlar, xalqaro standartlar (AAOIFI), hamda O'zbekistonda moliyaviy islohotlar bo'yicha tahliliy materiallar tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida rahn, vadiya va havala institutlarining iqtisodiy mohiyati va ularning raqamli muhitda qo'llanilish imkoniyatlari aniqlandi.

Rahn — qarz munosabatlarida qarzni ta'minlash maqsadida qo'yiladigan mol-mulkdir. Islom huquqiga ko'ra, rahn foizsiz qarz munosabatlarida ishonchni ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi. Raqamli banklar sharoitida rahn elektron reestrlar, raqamli aktivlar va onlayn shartnomalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Rahn lug'atda "garovga qo'yish", "mustahkamlash" ma'nolarini anglatadi. Islom xuquqi ta'rifga ko'ra, rahn — qarzni ta'minlash maqsadida qo'yilgan mol-mulk bo'lib, qarz qaytarilmagan taqdirda qarzdorning majburiyatini qoplash uchun ishlatiladi[4].

Ilmiy adabiyotlarga ko'ra, rahn shartnomasi quyidagi shartlar asosida amal qiladi:

- garovga qo'yilayotgan mol mulkli va qiymatga ega bo'lishi;
- garov beruvchi uni tasarruf qilish huquqiga ega bo'lishi;
- qarz munosabati mavjud bo'lishi[7].

Rahnning asosiy vazifasi — qarz beruvchi uchun xavfni kamaytirish va moliyaviy munosabatlarda ishonchni ta'minlashdir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida rahn: elektron reestrlarda qayd etiladigan aktivlar; raqamli shartnomalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Vadiya islom iqtisodiyotida omonat munosabatlarini tartibga soluvchi muhim huquqiy institut hisoblanadi. Islom moliyasi adabiyotlarida vadiya bir shaxsning o'z mulkini boshqa shaxsga ishonch asosida saqlash uchun topshirishi sifatida ta'riflanadi. Bunda omonatni qabul qiluvchi shaxs ushbu mulkni ehtiyot qilish va uni omonat egasi talab qilgan vaqtda qaytarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi [5].

Islom huquqiga ko'ra, vadiya shartnomasining asosiy xususiyati — uning beg'araz va foizsiz xarakterga egaligidir. Ya'ni omonatni saqlovchi shaxs omonatdan foydalanish yoki undan daromad olish huquqiga ega emas. Agar omonatdan foydalanishga ruxsat berilsa, u holda munosabatlar boshqa shartnoma turi, masalan, qarz yoki mudoraba munosabatlariga aylanadi[6].

Zamonaviy islom bank amaliyotida vadiya instituti, asosan, joriy hisoblarni tashkil etishda qo'llaniladi. Bunda mijoz o'z mablag'larini bankka omonat sifatida topshiradi va bank ushbu mablag'larni xavfsiz saqlash hamda mijoz talab qilgan vaqtda qaytarish majburiyatini oladi. Bu munosabatlarda bank tomonidan kafolatlangan daromad to'lanmaydi, chunki bu holat ribo elementlarini keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, islom banklari amaliyotida mijozlarga bank faoliyati natijasida ixtiyoriy ravishda hadya (hiba) taqdim etish mumkin, ammo bu hadya oldindan shart qilinmaydi va kafolatlanmaydi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida vadiya instituti yangi texnologik imkoniyatlar asosida rivojlanmoqda. Raqamli banklar va fintex platformalari orqali ochiladigan joriy hisoblar vadiya shartnomasi asosida tashkil etilishi mumkin. Bunda mijoz mablag'lari:

- onlayn bank tizimlarida hisobga olinadi;
- mobil ilovalar orqali boshqariladi;



-raqamli identifikatsiya va biometrik autentifikatsiya orqali muhofaza qilinadi.

Raqamli bank hisoblarida vadiya institutining qo'llanilishi qator afzalliklarga ega:

- mablag'larning xavfsiz va shaffof saqlanishi;
- operatsiyalarning tezkor amalga oshirilishi;
- hisob-kitoblarning avtomatlashtirilishi;
- mijozlar uchun qulay va doimiy moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati.

Shu bilan birga, raqamli muhitda vadiya munosabatlarini amalga oshirishda huquqiy va texnik infratuzilmani takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, elektron shartnomalarni huquqiy jihatdan tan olish, kiberxavfsizlikni ta'minlash, mijoz ma'lumotlarini himoya qilish va islom moliyasi standartlariga muvofiq nazorat mexanizmlarini joriy etish talab etiladi.

Havala islom iqtisodiyotida qarz yoki moliyaviy majburiyatni bir shaxsdan boshqa shaxs zimmasiga o'tkazish mexanizmini anglatuvchi muhim institut hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda havala qarzdorning o'z zimmasidagi majburiyatni uchinchi shaxs zimmasiga o'tkazishi va bu holat kreditor tomonidan qabul qilinishi orqali amalga oshiriladigan huquqiy munosabat sifatida ta'riflanadi. Ushbu institut iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitoblarni engillashtirish, qarz majburiyatlarini qayta taqsimlash va moliyaviy aylanmani tezlashtirishga xizmat qiladi[4].

Islom huquqiga ko'ra, havala shartnomasining amal qilishi uchun quyidagi asosiy shartlar talab etiladi:

- qarzdor, kreditor va yangi majbur shaxsning roziligi;
- qarz miqdorining aniq belgilanishi;
- majburiyatni adolatli va shaffof tarzda o'tkazish;
- ribo elementlarining mavjud emasligi[7].

Havala institutining iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, u qarz munosabatlaridagi hisob-kitoblarni soddalashtiradi va pul oqimlarining samarali taqsimlanishini ta'minlaydi. Bu esa ayniqsa savdo, xizmatlar va xalqaro pul o'tkazmalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida havala instituti islom fintex platformalari orqali yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Fintex texnologiyalari moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirish, tezkor va arzon to'lovlarni amalga oshirish hamda moliyaviy xizmatlarni keng aholi qatlamiga etkazish imkonini bermoqda.

Fintex tizimida havala mexanizmi quyidagi yo'nalishlarda qo'llanilmoqda:

- raqamli to'lov platformalari orqali qarz majburiyatlarini elektron shaklda o'tkazish;
- P2P (peer-to-peer) moliyalashtirish tizimlari orqali qarzdorlik munosabatlarini to'g'ridan-to'g'ri ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash;
- transchegaraviy pul o'tkazmalarida an'anaviy bank tizimlariga nisbatan tezkor va arzon mexanizm sifatida qo'llash[9].

Havala tizimining islom fintexda qo'llanilishi quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi: moliyaviy operatsiyalarning tezkorligi; tranzaksiya xarajatlarning kamayishi; moliyaviy inklyuziyaning oshishi; xalqaro pul o'tkazmalarining soddalashuvi; islom moliyasi tamoyillariga mos moliyaviy xizmatlarning kengayishi.

Shu bilan birga, raqamli havala tizimini joriy etishda huquqiy tartibga solish, kiberxavfsizlikni ta'minlash, mijozlarni identifikatsiya qilish va islom moliyasi talablariga muvofiq nazorat mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rahnga qo'yiladigan aktivlar elektron reestrlarda qayd etiladigan raqamli yozuvlar orqali rasmiylashtiriladi. Bunda ko'chmas mulk, transport vositalari, qimmatli qog'ozlar yoki boshqa aktivlar davlat yoki xususiy elektron bazalarda ro'yxatga olinadi. Bu esa garov mulkining huquqiy maqomini aniq belgilash, uning ikki marta garovga qo'yilishining oldini olish va moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi[8].

Ikkinchidan, rahn munosabatlari raqamli shartnomalar orqali rasmiylashtirilishi mumkin. Elektron shartnomalar onlayn bank platformalari, mobil ilovalar yoki fintex tizimlari orqali tuziladi. Bunday shartnomalarda garov ob'ekti, qarz miqdori, qaytarish muddati, taraflarning huquq va majburiyatlari aniq ko'rsatilib, elektron raqamli imzo orqali tasdiqlanadi.

Vadiya instituti raqamli bank tizimlarida mijoz mablag'larini xavfsiz saqlashga xizmat qiluvchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ushbu institutni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish islom moliyasi tamoyillariga mos, shaffof va barqaror moliyaviy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Havala instituti islom iqtisodiyotida qarz majburiyatlarini adolatli taqsimlash va hisob-kitoblarni engillashtirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm hisoblanadi. Uni islomiy fintex platformalari orqali raqamli formatda qo'llash moliyaviy xizmatlarning samaradorligini oshirish, transchegaraviy to'lovlarni tezlashtirish va islom moliyasi tamoyillariga mos barqaror moliyaviy tizimni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda raqamli bank xizmatlari jadal rivojlanmoqda. Islom moliyasi instrumentlarini joriy etish orqali aholining moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatini kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va aholi talabini qondirish imkoniyatlari mavjud[3; 11].



Xulosa qilib aytganda, rahn, vadiya va havala islom iqtisodiyotining asosiy institutlari sifatida raqamli iqtisodiyot sharoitida ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ularni raqamli banklar va islomiy fintex tizimida qo'llash barqaror va adolatli moliyaviy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Baydaulet Ye.A. Islomiy moliya asoslari. "O'zbekiston" NMIU, Toshkent. 2019. B. 50-55.
2. Bekkin R.I. Islom iqtisodiy modeli va zamon. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. – 360 b.
3. Abdullaev R.V. Islom iqtisodiyotida savdo va tadbirkorlik. "Effect-D" nashriyoti, 2022. – 232 b.
4. Usmani M.T. An Introduction to Islamic Finance. Karachi, 2002.
5. Ayub M. Understanding Islamic Finance. Wiley, 2007.
6. Iqbal Z., Mirakhor A. Islamic Finance: Theory and Practice. 2011.
7. AAOIFI. Shariah Standards. Bahrain, 2020.
8. El-Gamal M. Islamic Finance: Law, Economics, and Practice. Cambridge, 2006.
9. Obaidullah M. Islamic Financial Services. Jeddah, 2005.
10. Chapra M.U. Islam and the Economic Challenge. 1992.
11. O'zbekistonda islom moliyasi rivoji bo'yicha tahliliy materiallar, 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
